THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

KORXONA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH NAZARIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi
(Mustaqil izlanuvchi)
yangiboymustafoqulov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion moliyalashtirish nazariyasining shakllanish bosqichlari, uning tarixiy evolyutsiyasi hamda zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion moliyalashtirish kontseptsiyasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan nazariy yondashuvlar, iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va turli davrlardagi moliyalashtirish mexanizmlarining transformatsiyasi yoritilgan. Shuningdek, venchur kapitali, xususiy investitsiyalar, kraudfanding, biznes farishtalari, davlat innovatsion fondlari hamda raqamli moliyalashtirish platformalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье исследуются этапы становления теории инновационного финансирования, её историческая эволюция и значение в современной экономике. Рассмотрены основные теоретические подходы к развитию инновационного финансирования, научные взгляды ведущих экономистов, а также трансформация механизмов финансирования на различных этапах экономического развития. Особое внимание уделено становлению и развитию венчурного капитала, частных инвестиций, краудфандинга, бизнес-ангелов, государственных инновационных фондов и цифровых финансовых платформ.

Abstract: This article examines the stages in the formation of the theory of innovative financing, its historical evolution, and its significance in the modern economy. The study analyzes the major theoretical approaches that have shaped innovative financing, the scientific views of leading economists, and the transformation of financing mechanisms across different stages of economic development. Particular attention is paid to the emergence and development of venture capital, private investment, crowdfunding, business angels, public innovation funds, and digital financing platforms.

Kalit so‘zlar: Innovatsion moliyalashtirish, innovatsiya, moliyalashtirish nazariyasi, venchur kapitali, investitsiya, kraudfanding, biznes farishtalari, startap, innovatsion fondlar, raqamli moliyalashtirish, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), korxona rivojlanishi, investitsion faoliyat, iqtisodiy o‘sish.

Ключевые слова: Инновационное финансирование, инновации, теория финансирования, венчурный капитал, инвестиции, краудфандинг, бизнес-ангелы, стартап, инновационные фонды, цифровое финансирование, финансовые технологии (FinTech), развитие предприятий, инвестиционная деятельность, экономический рост.

Keywords: Innovative financing, innovation, financing theory, venture capital, investment, crowdfunding, business angels, startups, innovation funds, digital financing, financial technology (FinTech), enterprise development, investment activity, economic growth.

KIRISH.

XXI asr iqtisodiyotida korxonalarning raqobatbardoshligi, avvalo, ularning innovatsion salohiyati va ushbu salohiyatni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan raqamli transformatsiya, to‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0), sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn texnologiyalari va yashil iqtisodiyot tamoyillarining jadal rivojlanishi korxonalar faoliyatida yangi

investitsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda iqtisodiyot fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy moliyalashtirish manbalari, xususan bank kreditlari, korporativ qarz mablag‘lari va davlat subsidiyalari uzoq yillar davomida korxonalar investitsion faoliyatining asosiy moliyaviy manbasi bo‘lib xizmat qildi. Biroq ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, innovatsion loyihalarning tavakkalchilik darajasining yuqoriligi hamda global raqobatning kuchayishi ushbu moliyalashtirish mexanizmlarining imkoniyatlarini ma’lum darajada cheklab qo‘ydi. Natijada, venchur kapital, kraudfanding, biznes farishtalari, korporativ venchur fondlari, yashil obligatsiyalar, FinTech platformalari va raqamli investitsion ekotizimlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning muqobil instrumentlari sifatida shakllandi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadi-ki, innovatsion moliyalashtirish tizimi iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri hisoblanadi. AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy kabi mamlakatlarda innovatsion fondlar, texnologik parklar va venchur kapital bozori rivojlanishi yuqori texnologiyali korxonalar sonining ko‘payishi, mehnat unumdorligining oshishi hamda eksport salohiyatining kengayishiga xizmat qilmoqda1. Ayniqsa, startap ekotizimining shakllanishida davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan moliyalashtirish modeli yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda.

O‘zbekistonda ham innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi2. So‘nggi yillarda, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalarni

1 B.Berkinov. Innovatsion iqtisodiyot. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021

2 Sh.Shodmonov va U.G‘afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020

moliyalashtirish, texnoparklar faoliyatini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish bo‘yicha qator institutsional islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, korxonalarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, venchur kapital bozori rivojlanishining sustligi, xususiy investorlardan foydalanish darajasining pastligi va moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi korxona faoliyatini rivojlantirishda innovatsion moliyalashtirishning nazariy asoslarini tizimli o‘rganish, uning tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish, zamonaviy moliyalashtirish instrumentlarining afzalliklari va cheklovlarini baholash hamda O‘zbekiston sharoitida innovatsion moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi innovatsion moliyalashtirishni “o‘tmish–bugun–kelajak” kontseptsiyasi asosida kompleks baholash, zamonaviy moliyalashtirish instrumentlarini yagona tizimga integratsiya qilish va O‘zbekiston korxonalari uchun sun’iy intellekt, FinTech hamda ESG tamoyillariga tayangan konseptual moliyalashtirish modelini taklif etishda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Korxona faoliyatini rivojlantirishda innovatsion moliyalashtirish masalasi iqtisodiyot nazariyasi, innovatsion menejment, korporativ moliya va investitsiyalar yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllangan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur masala yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi-ki, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish nafaqat ilmiy-texnik salohiyat, balki ularni moliyalashtirishning samarali mexanizmlariga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, innovatsion moliyalashtirishning nazariy asoslarini o‘rganish korxonalar rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasining asoschisi hisoblangan avstriyalik iqtisodchi J.A.Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy o‘sishning bosh harakatlantiruvchi

omili sifatida baholagan. Uning fikricha, iqtisodiy taraqqiyot yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalar, yangi bozorlar, yangi xom-ashyo manbalari va boshqaruvning yangi shakllarini joriy etish orqali yuzaga keladi. J.A.Shumpeter “Ijodiy vayronkorlik” (creative destruction) kontseptsiyasi orqali eski texnologiyalar o‘rnini yangilar egallashi iqtisodiy tizimning tabiiy rivojlanish qonuniyati ekanligini ilmiy asoslab berdi3. Mazkur yondashuv, bugungi innovatsion moliyalashtirish tizimining nazariy poydevorini tashkil etadi. Chunki, yuqori tavakkalchilikka ega innovatsion loyihalarni moliyalashtirish aynan iqtisodiy yangilanish jarayonini jadallashtiradi.

Keyingi bosqichda Peter Drucker innovatsiyani korxonalarning strategik boshqaruv vositasi sifatida talqin qildi. Uning qarashlariga ko‘ra, innovatsiya tasodifiy hodisa emas, balki tizimli boshqaruv natijasidir. Shu bois, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish korxona strategiyasining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. P.Drucker korxonalarning uzoq muddatli raqobat ustunligi ilmiy ishlanmalar va yangi texnologiyalarga muntazam investitsiya kiritish orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi.

Innovatsion moliyalashtirishning zamonaviy nazariyalarini rivojlantirishda Clayton Christensen muhim o‘rin egallaydi. U “Buzuvchi innovatsiyalar” (disruptive innovation) nazariyasini ishlab chiqib, bozorda mavjud yetakchi kompaniyalar ko‘pincha yangi texnologiyalarni moliyalashtirishga yetarli e’tibor bermasligi sababli, kichik innovatsion korxonalar ulardan ustun kelishini ilmiy jihatdan izohladi. Bu esa, innovatsion startaplarni moliyalashtirish uchun venchur kapital va biznes farishtalari institutlarining rivojlanishiga nazariy asos yaratdi.

XXI asr innovatsion iqtisodiyotining muhim kontseptsiyalaridan biri Henry Chesbrough tomonidan ilgari surilgan “Ochiq innovatsiyalar” (Open Innovation)

3 Joseph A. Schumpeter. The Theory of Economic Development**.** Harvard University Press, 1934

modelidir4. Ushbu yondashuvga ko‘ra, korxonalar innovatsiyalarni faqat ichki resurslar hisobiga emas, balki universitetlar, ilmiy markazlar, startaplar, investorlar va boshqa tashqi hamkorlar bilan hamkorlikda yaratishi lozim. Natijada, innovatsion moliyalashtirishning yangi shakllari – korporativ venchur fondlari, kraudfanding platformalari, akselerator va inkubator dasturlari keng rivojlandi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bozorini ilmiy jihatdan o‘rganishda Josh Lerner va Paul Gompersning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Ular venchur kapital bozori iqtisodiy o‘sishning eng muhim omillaridan biri ekanligini empirik ma’lumotlar asosida isbotlagan5. Tadqiqotchilarning fikricha, venchur investorlar nafaqat moliyaviy mablag‘, balki strategik boshqaruv, marketing, korporativ boshqaruv va xalqaro aloqalarni rivojlantirish orqali ham innovatsion korxonalarning muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Davlatning innovatsion moliyalashtirishdagi rolini ilmiy asoslashda Mariana Mazzucatoning ishlari alohida e’tiborga loyiq. U innovatsion rivojlanishda davlat faqat tartibga soluvchi emas, balki faol investor bo‘lishi kerakligini asoslaydi. Ayniqsa, fundamental ilmiy tadqiqotlar, yuqori texnologiyalar, sun’iy intellekt, biotexnologiya va yashil energetika kabi yuqori tavakkalchilikka ega yo‘nalishlarda davlat investitsiyalarining ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaydi.

Institutsional iqtisodiyot vakillari Douglass North va Oliver Williamson innovatsion moliyalashtirish samaradorligini institutsional muhit bilan bog‘laydi. Ularning fikricha, mulk huquqining himoyalanganligi, shaffof sud tizimi, rivojlangan moliya bozori va samarali korporativ boshqaruv innovatsion investitsiyalarni jalb etishning asosiy omillaridir. Ushbu nazariya ayniqsa

4 Henry Chesbrough. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology**.** Harvard Business School Press, 2003

5 Josh Lerner. The Architecture of Innovation: The Economics of Creative Organizations**.** Harvard Business Review Press, 2012

rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi6.

So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda raqamli moliyalashtirish (Digital Finance), FinTech, blokcheyn texnologiyalari, tokenizatsiya, kraudfanding va sun’iy intellekt asosidagi investitsion platformalar innovatsion moliyalashtirishning yangi bosqichi sifatida talqin qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi-ki, raqamli texnologiyalar tranzaktsiya xarajatlarini kamaytiradi, investitsion qarorlar qabul qilish tezligini oshiradi hamda kichik va o‘rta korxonalarning kapital bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalanib, investitsiya risklari samaraliroq boshqariladi.

O‘zbekistonlik ayrim iqtisodchi olimlar ham korxonalarni innovatsion rivojlantirish va moliyalashtirish masalalariga katta e’tibor qaratgan. Jumladan, S.G‘ulomov raqamli iqtisodiyot va innovatsion boshqaruv masalalarini ilmiy asoslagan bo‘lsa, Sh.Mustafaqulov investitsion muhitni takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmlarini tadqiq etgan. A.Vahobov, B.Xodiyev va boshqa mahalliy olimlarning ishlari esa korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsiya faolligini oshirish va innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan.

Biroq ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati innovatsion moliyalashtirishning alohida elementlarini o‘rganishga qaratilgan. Innovatsion moliyalashtirishning tarixiy evolyutsiyasi, zamonaviy raqamli moliya instrumentlari va kelajakdagi rivojlanish tendentsiyalarini yagona kontseptual yondashuv asosida kompleks baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ayniqsa, O‘zbekiston korxonalari misolida sun’iy intellekt, FinTech, ESG moliyalashtirish va venchur kapitalni integratsiyalashgan holda

6 И.Т.Балабанов. Инновационный менеджмент. Санкт-Петербург: Питер, 2001

tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada innovatsion moliyalashtirish “o‘tmish – bugun – kelajak” kontseptsiyasi asosida tizimli ravishda o‘rganiladi. Tadqiqot nafaqat mavjud nazariyalarni umumlashtiradi, balki O‘zbekiston sharoitiga mos kontseptual modelni taklif etishga qaratilgani bilan avvalgi maqolalardan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot dialektik yondashuv hamda tizimli tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv usullar, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Innovatsion moliyalashtirishning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda tarixiy evolyutsion yondashuv, mamlakatlar tajribasini baholashda qiyosiy tahlil, O‘zbekiston sharoitiga mos takliflarni ishlab chiqishda esa tizimli va institutsional yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro ilmiy adabiyotlar, OECD, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, WIPO, Global Innovation Index hisobotlari, shuningdek O‘zbekistonning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari va statistik ma'lumotlari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Innovatsion moliyalashtirish nazariyasining shakllanish bosqichlari:

Innovatsion moliyalashtirish iqtisodiy taraqqiyotning turli davrlarida ishlab chiqarish omillari, kapital bozori va ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishiga mos ravishda takomillashib borgan[7]. Mazkur jarayonni shartli ravishda olti asosiy bosqichga ajratish mumkin. Har bir bosqich o‘ziga xos moliyalashtirish instrumentlari, institutsional mexanizmlari va iqtisodiy natijalari bilan tavsiflanadi.

1-bosqich. *Innovatsion rivojlanish nazariyasining shakllanish davri (1911–1945).*

7 С.Ю.Глазьев. Теория долгосрочного технико-экономического развития. Москва: ВлаДар, 1993

1911 yilda Joseph Schumpeter tomonidan chop etilgan “The Theory of Economic Development” asari innovatsion iqtisodiyot nazariyasining boshlanish nuqtasi bo‘ldi. Olim innovatsiyani iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida baholab, tadbirkorning yangi kombinatsiyalar yaratishdagi rolini ilmiy asoslab berdi. Mazkur davrda innovatsiyalar asosan quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan:

- tadbirkorlarning shaxsiy mablag‘lari;
- tijorat banklari kreditlari;
- yirik sanoat korxonalarining ichki kapitali;
- davlatning harbiy va sanoat buyurtmalari.

Bu davrda innovatsion moliyalashtirish hali mustaqil moliyaviy institut sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, ilmiy-texnik taraqqiyotning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilk bor nazariy jihatdan asoslab berildi.

2-bosqich. *Davlat investitsiyalarining ustuvorligi (1945–1970).*

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda rivojlangan mamlakatlarda ilm-fan va texnologiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash keskin kuchaydi. Ayniqsa:

- AQSH;
- Germaniya;
- Yaponiya;
- Buyuk Britaniya

davlatlari ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun milliardlab dollar investitsiya yo‘naltirdilar. Mazkur davrning asosiy xususiyatlari:

- ilmiy markazlar tashkil etilishi;
- universitetlarda ilmiy grantlar;
- mudofaa sanoati orqali innovatsiyalarni moliyalashtirish;
- davlat ilmiy fondlari.

Bugungi internet, GPS, mikroprotsessor, sun'iy yo‘ldosh texnologiyalarining dastlabki ishlanmalari aynan davlat investitsiyalari hisobidan yaratilgan.

3-bosqich. *Venchur kapitalning vujudga kelishi (1970–1990).*

1970 yillardan boshlab AQSHda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning mutlaqo yangi shakli — Venture Capital bozori shakllandi. Mazkur tizimning asosiy maqsadi:

- yuqori tavakkalchilikka ega startaplarni moliyalashtirish;
- ilmiy g‘oyalarni tijoratlashtirish;
- yangi texnologiyalarni bozorga olib chiqish.

Silikon vodiysining dunyoga mashhur kompaniyalari:

- Apple
- Intel
- Cisco
- Oracle
- Microsoft

faoliyatining dastlabki bosqichida aynan venchur kapital hisobidan rivojlangan.

Mazkur davr innovatsion moliyalashtirish tarixida tub burilish yasadi.

Endilikda investorlar garov talab qilmasdan, korxona ulushini sotib olish orqali investitsiya kiritishni boshladilar.

4-bosqich. *Globallashuv va korporativ innovatsiyalar (1990–2010).*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuv jarayonlari innovatsion moliyalashtirish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu davrning asosiy belgilari:

- transmilliy korporatsiyalar ilmiy markazlari;
- Corporate Venture Capital;
- IPO orqali innovatsiyalarni moliyalashtirish;
- xususiy investitsiya fondlari;
- texnoparklar;
- biznes inkubatorlar.

Henry Chesbrough tomonidan ishlab chiqilgan Open Innovation kontseptsiyasi aynan shu davr mahsuli hisoblanadi. Korxonalar innovatsiyalarni faqat ichki resurslar hisobidan emas, balki:

- universitetlar;
- startaplar;
- investorlar;
- ilmiy markazlar;
- konsalting kompaniyalari

bilan hamkorlikda yaratishni boshladilar.

5-bosqich. *Raqamli iqtisodiyot davri (2010–2020).*

Mazkur davr innovatsion moliyalashtirishning eng tez rivojlangan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Yangi moliyalashtirish instrumentlari paydo bo‘ldi:

- Crowdfunding;
- Crowdlending;
- P2P Lending;
- ICO;
- FinTech;
- Digital Banking;
- Equity Crowdfunding;
- Blockchain Finance.

Shuningdek:

- Kickstarter;
- Indiegogo;
- Seedrs;
- Crowdcube

kabi platformalar millionlab innovatsion loyihalarni moliyalashtirdi.

Natijada, kichik korxonalar ham global investorlardan mablag‘ jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

6-bosqich. *Sun'iy intellekt va aqlli moliyalashtirish davri (2020–2026).*

Hozirgi davr innovatsion moliyalashtirish tarixidagi mutlaqo yangi bosqich hisoblanadi. Asosiy tendentsiyalar:

- AI Venture Capital;
- Big Data Analytics;
- ESG Finance;
- Green Bonds;
- Decentralized Finance (DeFi);
- Tokenized Assets;
- AI Credit Scoring;
- Open Banking.

Sun'iy intellekt investitsion risklarni real vaqt rejimida baholash imkoniyatini yaratmoqda.

Blockchain texnologiyalari investitsiya jarayonining shaffofligini ta'minlamoqda.

ESG tamoyillari esa, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni innovatsion moliyalashtirishning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

1 – jadval

Innovatsion moliyalashtirish evolyutsiyasining tarixiy bosqichlari[8]

Davr	**Asosiy moliyalashtirish manbasi**	**Xususiyati**
1911–1945	Bank krediti, xususiy kapital	Innovatsiya nazariyasining shakllanishi
1945–1970	Davlat investitsiyalari	Ilmiy tadqiqotlarni davlat qo‘llab-quvvatlashi
1970–1990	Venchur kapital	Startaplarni moliyalashtirish

8 Б.Н.Кузык va Ю.В.Яковец. Россия–2050: Стратегия инновационного прорыва. Москва: Экономика, 2005

1990–2010	Korporativ investitsiyalar	Global innovatsiyalar
2010–2020	FinTech va kraudfanding	Raqamli moliya
2020–2026	AI, ESG, Green Finance	Intellektual moliyalashtirish

Tarixiy rivojlanish bosqichlari shuni ko‘rsatadi-ki, innovatsion moliyalashtirishning mazmuni oddiy kreditlash mexanizmidan ko‘p manbali, raqamli va institutsional tizimga aylangan. Dastlabki davrlarda, korxonalar asosan o‘z mablag‘lari va bank kreditlariga tayangan bo‘lsa, bugungi kunda, moliyalashtirishning manbalari sezilarli darajada diversifikatsiyalashgan. Bu esa, korxonalarga moliyaviy risklarni taqsimlash, kapital qiymatini optimallashtirish va innovatsion loyihalarni tezroq amalga oshirish imkonini bermoqda.

Shuningdek, tarixiy tahlil innovatsion moliyalashtirishning evolyutsiyasi davlat, xususiy sektor va moliya bozori institutlari o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ilgari davlat investitsiyalari ustun bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda davlat ko‘proq qulay institutsional muhit yaratish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish funktsiyasini bajaradi. Bu yondashuv, innovatsion ekotizimning barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion moliyalashtirishning tarixiy evolyutsiyasi shuni ham ko‘rsatadi-ki, kelgusida sun'iy intellekt, blokcheyn, tokenizatsiya va raqamli aktivlar asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari yanada keng qo‘llaniladi 9 . Shu bois, O‘zbekiston korxonalari ham ushbu global tendentsiyalarga mos ravishda moliyalashtirish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishi va zamonaviy instrumentlarni amaliyotga joriy etishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, korxona faoliyatini rivojlantirishda innovatsion moliyalashtirish nazariyasi uzoq tarixiy evolyutsiya

9 A.Vahobov, Sh.Xajibakiyev, N. Muminov. Investitsiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019

jarayonini bosib o‘tgan bo‘lib, u an’anaviy bank kreditlari va davlat mablag‘lariga tayanadigan modeldan venchur kapitali, xususiy investitsiyalar, kraudfanding, biznes farishtalar, korporativ venchur fondlari, yashil moliyalashtirish hamda raqamli moliyaviy platformalarga asoslangan zamonaviy tizimga aylandi. Nazariyaning shakllanish bosqichlari tahlili innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining korxonalarning investitsion faolligi, raqobatbardoshligi va barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashdagi ahamiyati yildan-yilga ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, korxonalarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning diversifikatsiyalashgan manbalarini kengaytirish, xususan, venchur kapitali, kraudfanding va korporativ investitsiya fondlari faoliyatini rag‘batlantirish zarur.

Ikkinchidan, innovatsion moliyalashtirish bozorining institutsional va huquqiy asoslarini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish lozim.

Uchinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish hamda innovatsion korxonalar uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt, Big Data va FinTech texnologiyalarini innovatsion moliyalashtirish jarayonlariga keng joriy etish orqali investitsiya qarorlarining aniqligi va samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi korxonalarning innovatsion salohiyatini mustahkamlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Joseph A. Schumpeter. The Theory of Economic Development**.** Harvard University Press, 1934**.**
2. Henry Chesbrough. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology**.** Harvard Business School Press, 2003**.**
3. Josh Lerner. The Architecture of Innovation: The Economics of Creative Organizations**.** Harvard Business Review Press, 2012.
4. И.Т.Балабанов. Инновационный менеджмент. Санкт-Петербург: Питер, 2001.
5. С.Ю.Глазьев. Теория долгосрочного технико-экономического развития. Москва: ВлаДар, 1993.
6. Б.Н.Кузык va Ю.В.Яковец. Россия–2050: Стратегия инновационного прорыва. Москва: Экономика, 2005.
7. A.Vahobov, Sh.Xajibakiyev, N. Muminov. Investitsiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
8. Sh.Shodmonov va U.G‘afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
9. B.Berkinov. Innovatsion iqtisodiyot. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.